



Yogʻ-moy sanoati korxonalarida soliq auditini axborot tahliliy taʼminoti

Aʼzamova Aziza Olimjon qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda yogʻ-moy mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning hozirgi tahlili va uning imkoniyatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, korxonalarning holati va uning prognoz parametrlari ishlab chiqilgan va taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: korxona faoliyati, yogʻ-moy mahsulotlari, korxonalar holati, prognoz parametrlari.

Kirish. Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarish samarali tizimini shakllantirish, tarmoq korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun investitsiyalarni keng jalb etish, ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatdosh boʻlgan sifatli mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni koʻpaytirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" PQ-4821-son qarori qabul qilingan boʻlib unda "meva-sabzavot hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarini oʻrganish boʻyicha chuqur marketing tadqiqotlari oʻtkazish va buning asosida tarmoqni oʻrta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish" ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.



Mamlakatimizda bu borada bir qator qaror va dasturlar qabul qilingan, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yog' -moy tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 19 yanvardagi PQ-3484 sonli qarori fikrimizning tasdig'idir. Bugungi kunda respublikamizda sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish va keng turdagi yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarilishini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mazkur tarmoqdagi mavjud tizimli muammolarga barham berish bozorni sifatli, xavfsiz, arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va butun mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning eng muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, xom ashyo bazasining cheklanganligi, jumladan muqobil yog' olinadigan ekinlardan yetarlicha foydalanmaslik yog'-moy korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishga solishni ta'minlash va bozorning sifatli yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan talabini qanoatlantirish imkonini chegaralab qo'ymoqda.

Yog'-moy mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish maqsadida qushma korxonalari tomonidan joriy yilda qariyb 5 trillion so'm, yanv art-sentyabrt oylari davomida 3,3 trillion so'm miqdorida mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Yil yakuniga qadar faqatgina uyushma tarkibidagi korxonalar tomonidan 220 ming tonna o'simlik moyi va 33,5 ming tonna margarin ishlab chiqariladi. 2022 yilda esa 233 ming tonna o'simlik moyi, 35,5 ming tonna margarin tayyorlanadi.

Ichki bozorda yog'-moy mahsulotlari narxleri barqarorligini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz rahbari tomonidan bir qator meyo'riy hujjatlar qabul qilindi, jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 29 apreli kuni "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun imzolandi. Natijada 2021 yil 1 maydan 31 dekabrigacha O'zbekiston hududiga o'simlik yog'i, kungaboqar va zig'ir urug'i, shuningdek soya donini olib kirish



hamda o'simlik yog'ini (paxta yog'idan tashqari) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 yanvardagi "Fermar xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo'jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 14-son Qarorida past hosilli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari (sabzavot va poliz) joylashtirilishi vazifa etib tayinlandi.

Respublika aholisining o'simlik yog'iga bo'lgan yillik talabi 2020 yilda 400 ming tonnani tashkil etadi. Uning 280 ming tonnasi Respublikada ishlab chiqarilsa, qolgani import hisobidan qoplanishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda Respublikaga kungaboqar yog'i hamda kungaboqar doni importning salmoqli qismi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonida moyli ekinlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017 yil 7 fevraldagi 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining III ustuvor yo'nalishida «...paxta va boshqali don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish» belgilab berilgan». Bu hukumat tomonidan moyli ekinlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga aholining yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Respublika yog'-moy korxonalari tomonidan 2019 yilda 2,2-2,3 tonna moyli o'simliklarni qayta ishlangan, shu jumladan 2 mln. tonna paxta chigiti va 300 ming tonna moyli o'simliklar.



Vaholanki Respublikadagi 200 dan ziyod yirik va kichik yog'-moy korxonalarining ishlab chiqarish quvvati 5 million tonnani tashkil etadi. Bugungi kunda yog'-moy korxonalarining eng katta muammolari bu hom ashyodir. Chunki yog'-moy korxonalari 50 foiz quvvat bilan ishlab kelmoqda. Boshqa davlatlarda buning aksi Misol uchun Qozog'istonda ishlab chiqarish quvvati 1,5 million tonna bo'lib, xomashyo hajmi 6 million tonnadan iborat.

Respublikada ananaviy paxta chigitini qayta ishlash hajmi qisqarib borayotganligi uchun noananaviy xom ashyolarda yog'-moy mahsulotlarini olish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Xususan, 2016-2020 yillarda 1011,2 ming tonna paxta yog'i, 682 ming tonna kungaboqar yog'i va 93,6 ming tonna soya yog'i iste'mol qilingan. 2020 yilda aholini o'simlik moyi iste'moli 2016 yilga nistaban 8 foizdagi o'sishni ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilib, shunday hulosalar kelish mumkinki bugungi kunga kelib aholida kungaboqar yog'iga bo'lgan talab keskin oshib bormoqda. Aholini sifatli kungaboqar yog'i bilan ta'minlash uchun respublikada kungaboqar ekin maydonlarini kengaytirish kerak. Bunday xulosaga kelish uchun bir necha sabablar bor:

Birinchidan, 2016-2020 yillarda iste'mol qilingan 1787 ming. tonna (paxta yog'i, kungaboqar yog'i va soya yog'ining) o'simlik moyining 682 ming tonnasi ya'ni 38,2 foizi kungaboqar moyiga to'g'ri keladi;

Ikkinchidan, 2016-2020 yillarda import qilingan 739,2 ming. tonna (paxta yog'i, kungaboqar yog'i va soya yog'ining) o'simlik moyining 609,7 ming tonnasi ya'ni 82,5 foizi kungaboqar moyiga to'g'ri keladi;

Uchinchidan, 2016-2020 yillarda import qilingan 1064 ming. tonna (paxta yog'i, kungaboqar yog'i va soya yog'ining) moyli ekinlar donining 609,7 ming tonnasi ya'ni 57,3 foizi kungaboqar doniga to'g'ri kelganini ko'rishimiz mumkin.



Yog'-moy korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish uchun eng avvalo moyli ekinlarni maydonini ko'paytirish uning uchun foydalanishdan chiqib ketgan va yer osti suvlari zaxirasi mavjud bo'lgan yerlarni foydalanishga kiritib, tabiiy-tuproq hamda iqlim sharoitidan kelib chiqib mos keluvchi kungaboqar ekini ekish;

- yerdan foydalanish davomida belgilangan kungaboqar ekinini ekib, ish o'rinlarini yaratish, ijara xarajatlarini o'z vaqtida qoplagan tadbirkorlik sub'ektlariga yerdan foydalanish muddatini uzaytirishda ustuvorlik huquqi berish;

- qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish va yanada rivojlantirish, unga zamonaviy menejment mexanizmlarini joriy etish, sohani raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish;

- xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini yaratish;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni ta'minlash;

- agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligini hamda sohani davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash;

- byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan agrar va oziq-ovqat sohasiga ajratiladigan mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlash;

- qishloq xo'jaligi tarmoqlarida investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga ko'maklashish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish orqali yog'-moy korxonalarini ishlab chiqarish zahiralarini yaratishga, kungaboqar doni va kungaboqar yog'ining importini qisqartirishga, korxonalarda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga, mahalliy byudjet daromadlarini oshirishga, yog'-moy



korxonalarining innovatsion faolligini oshirishga, tarmoqni innovatsion jozibadorligini jadallashtirishga hamda oziq-ovqat sanoatini diversifikatsiya qilish bo'yicha yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu takliflarni amalga oshirilishi natijasida, respublikamizda aholini yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, importni qisqartirish, ishlab chiqarilgan mahsulotning ortiqchasini qayta ishlab xorijiy davlatlarga eksport qilish hisobiga katta foyda olish imkoniyatlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Агеева Д.Р. Бенчмаркинг как инструмент обеспечения конкурентоспособности предприятия. Журнал Стратегический менеджмент. Российское предпринимательство, 2007, № 10 (2)
2. Князев Е.А., Евдокимова Я.Ш. Бенчмаркинг для вузов: Учебно-методическое пособие. М.: Университетская книга, Логос, 2006. - 30 с.
3. Ф. Котлер. Основы маркетинга Краткий курс Пер с англ — М Издательский дом "Вильяме", 2007 — 656 с
4. Нэреш К. Молхотра. Маркетинговые исследования. Практическое руководство, 3-е издание.: Пер. с англ. — М.:Издательский дом "Вильяме", 2002. — 960 с.
5. Маркетинговые исследования и ситуационный анализ: учебник / под. Ред. И.И. Скоробогатых, Д.М. Ефимовой. - М.: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г.В. Плеханова», 2017
6. Haqberdievich K. D., Shavkiddinovich M. M. USE OF INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES IN THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES //Journal of marketing, business and management. - 2022. - T. 1. - №. 1. -С. 53-61.
7. Мурадова Н. У. Специфика рынка лизинговых услуг и используемых в них маркетинговых инструментов //ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. - 2019. - С. 493-499.